“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



Huquqiy ong va amaliyot muvozanati: kuch ishlatishda xodim mas’uliyati

Abduqodir Abdibositov,
IIV Malaka oshirish instituti
IIV Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: abduqodir.online@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jismoniy kuch, maxsus vositalar va qurol qo‘llash bilan bog‘liq huquqiy masalalar tahlil qilingan. Xususan, xodim harakatining qonuniyligi bo‘lsa-da, uni tushuntirib bera olmaslik holatlari orqali kelib chiqadigan muammolar yoritilgan. Prokuratura organlari tomonidan tushuntirish berolmaslik asosida chiqariladigan xulosalar tanqidiy tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy qaror qabul qilish bilan huquqiy izoh berish o‘rtasidagi farq, xodimlarning kuch ishlatishdan cho‘chishi va buning jamoat xavfsizligiga ta’siri o‘rganilgan. Muammolarni bartaraf etish uchun kasbiy-huquqiy ongni rivojlantirish, huquqiy savodxonlikni oshirish va nazorat organlari bilan samarali hamkorlik qilish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Калит сўзлар. huquqni muhofaza qiluvchi organlar, kasbiy-huquqiy ong, kuch ishlatish, ta’sir choralari, huquqiy asos, prokuratura nazorati, huquqiy savodxonlik, javobgarlik, tushuntirish majburiyati, qonunga muvofiqlik, huquqbuzarlik

Аннотация. В данной статье проведён правовой анализ вопросов, связанных с применением физической силы, специальных средств и огнестрельного оружия сотрудниками правоохранительных органов. Особое внимание уделено ситуациям, при которых действия сотрудника были законными, однако он не смог объяснить правовые основания своих поступков, что вызвало определённые проблемы. Рассматривается критическая точка зрения на выводы, делаемые органами прокуратуры на основании неспособности сотрудника дать правовое разъяснение. Также анализируется различие между принятием практического решения и юридическим обоснованием, влияние страха перед применением силы на эффективность службы и общественную безопасность. В заключение предлагаются рекомендации по развитию профессионально-правового сознания, повышению правовой грамотности и укреплению взаимодействия с органами надзора.

Ключевые слова. правоохранительные органы, профессионально-правовое сознание, применение силы, меры воздействия, правовое основание, надзор прокуратуры, правовая грамотность, ответственность, обязанность разъяснения, законность,

правонарушение.

Annotation. This article provides a legal analysis of issues related to the use of physical force, special means, and firearms by law enforcement officers. Particular attention is paid to situations where the officer's actions were lawful, but he was unable to explain the legal basis for his conduct, which leads to certain problems. The article offers a critical view of conclusions drawn by prosecutorial authorities based on the officer's inability to provide legal justification. It also explores the difference between practical decision-making and legal explanation, as well as the tendency of officers to avoid using force due to fear of punishment, and the impact of this on public safety. The article concludes with recommendations for improving professional legal consciousness, enhancing legal literacy, and strengthening cooperation with oversight bodies.

Keywords. law enforcement agencies, professional legal consciousness, use of force, coercive measures, legal basis, prosecutorial oversight, legal literacy, liability, duty of explanation, legality, offense.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar (masalan, ichki ishlar, milliy gvardiya va boshqalar) o‘z xizmat vazifalarini bajarish davomida ba’zan jismoniy kuch, maxsus vositalar yoki o‘qotar qurol qo‘llashga majbur bo‘ladi. Bu kabi “ta’sir choralari”ning qo‘llanilishi fuqarolarning huquq va erkinliklariga tegishi mumkinligi bois qonunchilikda qat’iy tartibga solingan. Kuch ishlatish mumkin bo‘lgan holatlar, uning chegarasi va tartibi qonun va ijro hujjatlari orqali belgilanadi. Shu bilan birga, amaliyotda xodim tomonidan kuch qo‘llanganidan so‘ng uning qonuniy asosini aniq va to‘g‘ri tushuntirib berish talabi yuzaga keladi. Agar xodim hatto qonuniy asos mavjud hollarda ham o‘z harakatining huquqiy asosini tushuntirib bera olmasa, bu vaziyatda prokuratura organlari muayyan xulosalar chiqaradi. Mazkur maqolada kuch va maxsus vositalarni qo‘llashning huquqiy asoslari, amaliyotdagi nazorat va tushuntirish talabi, bunday yondashuvning huquqiy-amaliy muammolari hamda xodimlarning kuch ishlatishdan qo‘rqishi oqibatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar yechimi uchun huquqiy savodxonlikni oshirish va prokuratura bilan hamkorlikni kuchaytirish yuzasidan takliflar beriladi.

Kuch va maxsus vositalarni qo‘llashning huquqiy asoslari

Huquqiy davlat tamoyiliga muvofiq, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda jismoniy kuch, maxsus vositalar yoki qurol qo‘llash huquqiga ega bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunida ichki ishlar organlari xodimlari quyidagi hollarda kuch ishlatish vakolatiga ega ekanligi belgilangan:

Agar boshqa choralar yetarli bo‘lmasa, jinoyatlarga yoki ma’muriy huquqbuzarliklarga chek qo‘yish.

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ushlash va ichki ishlar bo‘limiga olib borish.

Xodimning qonuniy talablariga bo‘ysunmagan qarshiliklarni bartaraf etish.

Shuningdek, qonun kuch va maxsus vositalar qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan har bir vositaning ro‘yxatini va ularni qaysi sharoitlarda ishlatilishi mumkinligini ham belgilab qo‘yadi. Masalan, mazkur qonunning 23-moddasiga muvofiq, maxsus vositalar (rezina tayoqlar, ko‘zdan yosh chiqaruvchi gazlar, elektroshok qurilmalari, qo‘lkishanlar va h.k.) qo‘llanilishi uchun ham alohida asoslar bayon etilgan. Kuch ishlatishdan avval imkoni boricha aniq ogohlantirish berish talabi ham qonunda aks etgan.

O‘qotar qurol esa faqat o‘ta muhim hollarda – masalan, qurolli hujumni daf etish, boshqa iloj qolmagan holda xavfli jinoyatchini tutish, haydovchining harakatlari atrofda gilarga halokatli xavf tug‘dirganda transportni to‘xtatish – kabi hollarda qo‘llanilishi mumkin. Qonun favqulodda hollarda qurol qo‘llashga cheklovlar ham qo‘ygan, masalan, ayollar va voyaga yetmaganlarga nisbatan odatda qurol qo‘llash taqiqlanadi.

Shuningdek, har qanday holatda kuch yoki qurol ishlatish miqdori vaziyatning xavflilik darajasiga mutanosib bo‘lishi va mumkin qadar kam zarar yetkazishi lozim. Xodim, imkon bo‘lsa, ta’sir choralarini qo‘llashdan oldin ogohlantirishi kerakligi ham qonunda belgilanadi. Ushbu qoidalarni amalda tatbiq etish tartibi idoralarning ichki yo‘riqnomalari va buyruqlari bilan batafsil tartibga solingan. Xodimlar maxsus tayyorgarlik kurslarida ushbu shart-sharoitlarda harakat qilishni o‘rganadi va vakolat doirasida ish tutishga majbur.

Demak, harakatlar uchun huquqiy zamin qonun bilan aniq belgilanadi, har perspectiva har bir holatda xodim o‘z qadamlarini aynan shu normalarga muvofiq amalga oshirishi talab etiladi.

Prokuratura nazorati va qonuniylikni asoslab berish talabi

Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi tomonidan kuch yoki maxsus vosita qo‘llanilganda, uning qonuniyligi ustidan nazoratni prokuratura amalga oshiradi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, agar kuch ishlatish natijasida kimningdir sog‘ligiga yoki mol-mulkiga zarar yetkazilgan bo‘lsa, har bir bunday holat haqida, shuningdek, o‘qotar qurol qo‘llanilgan barcha holatlar to‘g‘risida ichki ishlar organlari prokurorga darhol xabar beradi. Prokuror bu xabar asosida holatni o‘rganib, xodimning harakatlari qonuniy talablarga muvofiq yoki muvofiq emasligini tekshirib ko‘radi. Mazkur tekshiruv davomida xodim o‘z tomonidan qo‘llangan ta’sir choralarining qaysi huquqiy asosga ko‘ra amalga oshirilganini tushuntirib berishi kerak bo‘ladi. Ya’ni, xodim qonuniylikni asoslab bera olishi zarur – qaysi modda, qaysi holatga asosan kuch qo‘llashga majbur bo‘lganini bayon etishi kerak.

Amalda shunday holatlar kuzatiladiki, xodim qilgan harakati uchun qonun asosida asos bo‘lsa-da, uni aniq va ishonarli tushuntirib bera olmaydi. Bunday paytda prokuratura organlari,

odatda, xodim harakatini qonuniy deb topmaydi yoki kamida xizmat intizomini buzish sifatida baholaydi. Chunki, agar ijro vakolatini amalga oshirgan shaxs o‘z harakatini qaysi qonuniy normalarga asoslaganini bilmasa yoki tushuntira olmasa, demak, u huquqiy me’yorlarga rioya qilmagan deb hisoblanadi. Prokuror tekshiruvi natijasi bo‘yicha bunday hollarda xizmat tekshiruvi o‘tkazish, intizomiy jazo qo‘llash haqida taqdimnoma kiritishi yoki hatto zarur deb topilsa, xodimning harakatlarida jinoyat tarkibi bor-yo‘qligini baholashi mumkin. Masalan, xizmat vakolatidan chetga chiqish, ya’ni belgilan gan vakolat doirasidan tashqariga chiqib kuch qo‘llash holati aniqlansa, bu holat uchun Jinoyat kodeksining 206-moddasida jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Amaliyotda ham shunday vaziyatlar uchraganki, xodim qonuniy asosini ko‘rsata olmagan kuch ishlatish holati uchun jazoga tortilgan. Bir misol: Namangan viloyatida ikki nafari tezkor xodim fuqaroni asossiz ravishda kaltaklab, unga nisbatan noqonuniy tarzda ma’muriy ish ochishga urinishgan. Keyinchalik tuman prokurori qarori bilan ular tayyorlagan soxta ma’muriy ish bekor qilingan va mazkur xodimlarga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan. Bu holat prokuratura nazoratining amaliy namunasidir – xodimlar ta’sir choralarini qo‘llashga urin gan cho‘g‘da qonuniy asos yo‘q edi va ular uni soxta asos bilan oqlamoqchi bo‘ldilar, ammo prokuratura buni fosh etdi.

Amaliy qaror qabul qilish va huquqiy izoh berish o‘rtasidagi farq

Huquqni muhofaza qiluvchi xodim voqea joyida tezkor holatda qaror qabul qilishga majbur bo‘ladi. Jinoyat yoki huquqbuzarlik holatlarida vaqtida kuch ishlatish zaruriyati tug‘ilsa, xodim holatni darhol baholab, hayotiga, atrofda gilarga xavfni inobatga olib ta’sir choralarini qo‘llaydi. Bu jarayonda u avvalo amaliy fikrlaydi: qanday qilsam xavfni zararsizlantiraman, jinoyatning oldini olaman yoki tartibni tiklayman, degan savollar birinchi o‘rinda turadi. Kuch ishlatish to‘g‘risidagi qaror soniyalar ichida, stress va xatar sharoitida qabul qilinishi mumkin.

Shu bilan birga, har bir bunday qaror ortida huquqiy baholash bor. Xodim amaliy harakatni bajari b bo‘lganidan keyin, albatta, bu harakatining qonuniy asosini izohlashi lozim bo‘ladi. Qonuniy izoh berish esa alohida mahoratni talab qiladi: xodim qo‘llagan chora qay tartibda qonuniy ekanini tushuntirishi, zarur bo‘lganda huquqiy me’yorlarni iqtibos keltirishi kerak. Demak, amaliy faoliyat va huquqiy asosni bayon etish ikki xil kompetensiyadir. Xodim zo‘r jismoniy tayyorgarlik va tezkorlikka ega bo‘lishi mumkin, biroq hamma vaqt huquqiy terminologiyada aniq bayon eta oladi, deb bo‘lmaydi. Shu sababli ba’zi hollarda xodimlar sodir etgan harakatini qog‘ozda rasmiy asoslab berishda qiynalishadi. Buning ustiga, kuch ishlatish zarurati tug‘ilganda xodim barcha huquqiy talablarni doimiy ravishda ijro etolmasligi mumkin: masalan, shoshilinch holatda og‘zaki ogohlantirishni unutib qo‘yishi yoki vaziyat keskinligi sababli nomutanosib kuch qo‘llab qo‘yishi ehtimoli bor. Keyinchalik bu xatolarni huquqiy bahona bilan oqlash

qiyin bo‘ladi. Shu tariqa, voqea vaqtidagi qaror va keyingi huquqiy tahlil o‘rtasida ma’lum bir tafovut paydo bo‘lishi mumkin.

Bunday yondashuvning muammolari va xavflari

Agar prokuratura faqat xodimning o‘z harakatini yozma yoki og‘zaki tushuntirib berish qobiliyatiga qarab baho bersa, bu bir qancha muammolarga sabab bo‘ladi.

Birinchidan, huquqni qo‘llashning asosiy maqsadi – qonun ustuvorligi va adolatni ta’minlashdir. Agar ta’sir chorasi qonuniy shartlarda qo‘llangan bo‘lsa, faqat xodimning uni izohlaya olmagani uchun jazolash adolat tamoyiliga zid keladi. Bunda jazo qonuniy asos mavjud yoki yo‘qligiga emas, balki xodimning yuridik nutqiga asoslanib qo‘llangan bo‘ladi. Natijada, amalda to‘g‘ri qilgan, ammo tilda tushuntira olmagan xodim ham aybdorga chiqib qolishi mumkin.

Ikkinchidan, bunday yondashuv xizmat faoliyatida formalizmga olib kelishi xavfi bor. Xodimlar asosiy e’tiborni voqeani bartaraf etishga emas, balki keyinchalik o‘zini oqlay olishga qaratgani ma’qulmi? Agar har bir harakatidan so‘ng o‘zini qanday himoya qilish haqida o‘ylayversa, qaror qabul qilishda ikkilana boshlaydi. Bu esa samaradorlikni pasaytiradi. Huquqbuzarlikka zudlik bilan chora ko‘rish o‘rniga, xodim hadeb huquqiy natijalarni o‘ylab tursa, vaqti o‘tib ketishi yoki qat’iyat yetishmasligi mumkin.

Uchinchidan, tushuntirish bera olmaganlik uchun qattiq jazolash xodimlarda huquqiy nigilizm yoki xizmatga nisbatan loqaydlikni kuchaytirishi mumkin. Tanqidiy nuqtai nazardan qaralsa, bunday jazolash uslubi tizimda mas’uliyatdan qochish holatlarini keltirib chiqaradi: xodimlar tashabbuskorlikdan qochib, “ortiqcha harakat qilmaslik”ka harakat qiladi. Bu esa butun tizim uchun xavfli tendensiyadir.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, albatta, har bir kuch ishlatish holati huquqiy bahoga ega bo‘lishi shart. Prokuratura organlarining vazifasi qonun buzilishlarini aniqlash va ularning oldini olishdir. Lekin nazorat jarayonida har doim material haqiqatga e’tibor qaratish lozim: xodimning harakati voqeaning o‘ziga ko‘ra asoslimi yoki yo‘q? Faqat hujjatlarda asos yo‘qligi sababli haqli harakatni ham “noqonuniy” deb baholash oxir-oqibat jamoat xavfsizligi manfaatlariga zarar yetkazadi.

Xodimlar orasida kuch ishlatishdan qo‘rqish holatlari va uning xavfsizlikka ta’siri

Yuqorida keltirilgan muammolar natijasida amaliyotda huquqni muhofaza qiluvchi xodimlar orasida zarur holatda ham kuch ishlatishdan cho‘chish, ehtiyo t bo‘lish holatlari kuzatilishi mumkin. Agar xodim har qanday holatda ham keyin prokuratura yoki boshqa idoralar tomonidan jazolanib qolishdan qo‘rqsa, u hatto qonuniy asos bor paytda ham jismoniy kuch qo‘llashdan bosh tortishi ehtimoli bor. Masalan, tartibbuzarni tizginlash uchun xizmat tayoqchasidan foydalanish mumkin bo‘lgan vaziyatda xodim ikkilanayotgani sababli buni qo‘llamasa, bu tartibbuzarlik ulg‘ayib ketishi mumkin. Xuddi shu tarzda, o‘z xavfsizligi tahdid ostida

bo‘lsa-da, xodim keyinchalik tushuntirish bera olmasligini o‘ylab, kuch ishlatmaslikka qaror qilsa, natijada o‘ziga yoki atrofda gilarga ziyon yetishi mumkin.

Bunday holatlar jamoat tartibi va xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kuch ishlatish vakolati qonun tomonidan berilgan bo‘lsa-da, undan foydalanilmasligi huquqbuzarlarga qo‘llanilgan choraning ta’sirsizligini his qildirib, ularni yanada ruhlantirishi mumkin. Natijada, profilaktik ta’sir kuchi susaydi. Shu bois, xodimlarga kuch va vositalar qo‘llash vakolati berilgan ekan, ularni o‘z vaqtida va mos ravishda qo‘llamaslik ham xavfsizlikka tahdid sifatida qaralishi kerak.

Huquqiy savodxonlikni oshirish va prokuratura bilan hamkorlikni yaxshilash

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun huquqiy savodxonlikni oshirish hamda nazorat organlari bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Birinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini kuch ishlatish vakolatlari bo‘yicha muntazam o‘qitish va attestatsiyadan o‘tkazish kerak. Amalda qonunchilik xodimlarni maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazish va doimiy ravishda malakasini tekshirib borish talabini qo‘yadi. Shu talab amalda to‘liq va samarali bajarilishi lozim. Har bir xodim qonuniy asoslarni mukammal bilishi, hatto stress holatlarida ham o‘z harakatini qanday asoslash kerakligini tushunib yetishi uchun xizmat davomida ko‘nikmalar berilishi zarur. Masalan, xizmat mashg‘ulotlarida turli vaziyatlar bo‘yicha rolik o‘yinlar (scenario training) o‘tkazib, ularda xodimlarni nafaqat kuch ishlatish texnikasiga, balki keyin uning huquqiy izohini to‘g‘ri bayon etishga o‘rgatish mumkin.

Ikkinchidan, prokuratura organlari bilan hamkorlikda belgilangan tartib-taomillarni soddalashtirish va aniqlash taklif etiladi. Kuch ishlatish holatlarini rasmiylashtirish uchun birxil (standart) hisobot shakllarini joriy qilish, ushbu hisobotda xodim to‘ldirishi lozim bo‘lgan huquqiy asoslarga doir bo‘limlarni kiritish maqsadga muvofiq. Bu xodimga o‘z harakatini tez va to‘g‘ri tarzda bayon etishda yordam beradi. Prokurorlar esa o‘sha shakl orqali zarur ma’lumotni oson olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, nazorat va tergov organlari xodimlari o‘rtasida o‘zaro tushunish muhitini yaratish muhimdir. Prokuratura xodimlari profilaktik tarzda ichki ishlar bo‘limlariga chiqib, kuch ishlatish bilan bog‘liq masalalarda seminar-treninglar o‘tkazishi mumkin. Bunda ular o‘z talablari va ko‘nikmalarini ulashadi, xodimlar savollariga javob beradi. Bunday aloqa prokuraturaga nisbatan “jazolovchi organ” emas, balki “maslahatchi hamkor” maqomini hosil qiladi. Natijada, huquqbuzarliklarni bartaraf etishda hamkorlik samarasi ortadi.

Xulosa

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jismoniy kuch, maxsus vositalar va qurol qo‘llash amaliyoti qonun bilan chegaralanadi, unga qat’iy rioya etish talab etiladi. Xodim o‘z

harakatining qonuniy asosini tushuntirib berishi ham shu talabning bir qismidir. Biroq shuni unutmaslik kerakki, qonuniylikni ta’minlash bilan birga jamoat xavfsizligini saqlash, huquqbuzarliklarni vaqtida bartaraf etish ham o‘ta muhimdir. Demak, nazorat va jazo choraları adolatli va ezgu maqsadga qaratilishi lozim. Qonuniy asos mavjud bo‘lgan hollarda faqat tushuntirishdagi kamchilik uchun xodimni jazolash o‘rniga, uning huquqiy bilimlarini oshirishga e’tibor qaratish samaradorroq yo‘ldir. Huquqiy savodxonlikni oshirish, amalda qaror qabul qilish va huquqiy tahlil o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldirish, shuningdek, prokuratura bilan yaqin hamkorlik qilish orqali tizimda ham qonuniylik, ham faollikka erishish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, huquqiy tartibni mustahkamlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda ham manfaatli bo‘ladi.

Фойдаланилган адабиётлар:

Ўзбекистон Республикаси. Ички ишлар органлари тўғрисидаги қонун. – Тошкент, 2016. – 21-модда, 23-модда, 24-модда.

Ўзбекистон Республикаси. Жиноят кодекси. – Тошкент: “Адолат” нашриёти, 2021. – 206-модда, 235-модда.

Адлия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги ва Бош прокуратура. Ички ишлар органларида жисмоний куч, махсус воситалар ва қуроллардан фойдаланиш тартиби тўғрисидаги йўриқнома. – Тошкент: Адлия нашриёти, 2020.

Ўзбекистон Республикаси. Прокуратура тўғрисидаги қонун. – Тошкент, 2001.

Намангандаги ИИБ ходимлари фуқарони калтаклаб, сохта баённома тузган ҳолат юзасидан иш қўзғатилди // Kun.uz. – 2022. – 14 май. – URL: (мурожаат қилинган сана: 28.03.2025).

Ўзбекистон Республикаси Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (Омбудсман). Йиллик ҳисобот: Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолияти устидан жамоатчилик назорати. – Тошкент, 2023.